



UDK: 811.111

Nargiza ARCHABOEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: archabayevan@gmail.com

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Sh.Jabborov taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA IQTISODGA DOIR MULOQOTDA METAFARALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada iqtisodga doir muloqotda metafaralardan foydalanishning ahamiyati haqida so'z boradi va bugungi kunda ingliz va o'zbek tillarida iqtisodchilar tomonidan keng foydalanilayotgan stilistik vositalarning qo'llanilishi atroflicha tahlil etiladi. Shuningdek, iqtisodiy matnlarda stilistik vositalarni adekvat, to'g'ri va o'rinli qo'llanilishi atroflicha tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisod, diskurs, adekvat, semantika, leksika, ibora, metafora, termin, nutqiy akt.

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕРЕВОДОВ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КОММУНИКАЦИИ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье говорится о важности использования метафор в экономической коммуникации и подробно анализируется использование стилистических приемов, широко используемых сегодня экономистами на английском и узбекском языках. Также тщательно исследуется адекватное, правильное и уместное использование стилистических средств в экономических текстах.

Ключевые слова: Экономика, дискурс, адекват, семантика, лексика, словосочетание, метафора, термин, речевой акт.

THE USAGE OF METAPHERS IN ECONOMIC COMMUNICATION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article talks about the importance of using metaphors in economic communication and analyzes in detail the use of stylistic devices widely used by economists in English and Uzbek today. Adequate, correct and appropriate use of stylistic tools in economic texts is also thoroughly researched.

Key words: Economy, discourse, adequate, semantics, lexicon, phrase, metaphor, term, speech act.

Kirish. Bugungi kunga kelib dunyodagi turli xil ijtimoiy guruh va birliklar tomonidan iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Shunday ekan ko'plab odamlar kichik va o'rta biznes bilan shug'illanishni boshlashgan. Insonlar va dunyo mamlakatlari orasida biznes aloqalari integratsiya va kommunikatsiya orqali amalga oshmoqda. Mazkur integratsiyalar yozma va og'zaki bo'lishi mumkin. Shubhasizki, bunday iqtisodiy munosabatlarda ayrim muammolar ko'tariladiki, bu tadqiqotchilarni tilning fonetik, leksik, semantik sathlardagi muammolarni yechimini topishga undaydi.

Biz bilamizki, iqtisodiy matnlar ilmiy matn hisoblanib, bunday matnlarda badiiy yoki hayoliy (fantastik) vositalar ishlatilmaydi. Lekin, badiiy vositalarni metafora, "simile" (o'xshatish usuli) kabi o'xshatish vositalarini bugungi kunda dunyo iqtisodchilari tomonidan bevosita ishlatilayotganini ko'rishimiz mumkin. Iqtisodiy matnlarda bunday stilistik vositalarni qo'llanilishi ularni to'g'ri yoki noto'g'ri qo'llanilishini aniqlash tilshunoslar oldidagi vazifa hisoblanadi va bu ko'p tilshunos tadqiqotchilarni qiziqishini tortadi. Mazkur iqtisodiy matnlarda stilistik vositalarni adekvat, to'g'ri va o'rinli qo'llanilishi yangi g'oyalarning ifodalanishi, ilg'or innovatsiyalarning kirib kelishining bir usuli hisoblanadi. Mazkur iqtisodiy metafaralarni ommalashib borishi esa yosh tilshunos tadqiqotchilarning iqtisodiyot sohasida foydalanilayotgan metafaralarni tadqiq etishga bo'lgan qiziqishlarni yanada oshiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asr tilshunosligida tushuncha va ma'no sifatida terminga ta'rif berishda turlicha, xilma-xil yondashuvlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, terminologiya masalalarini

tadqiq etishda rus filologi A.V.Superanskaya, o'zbek olimlaridan G.I.Ergasheva, X.A.Sarimsokov, N.B.Abdurashitovlarning tadqiqotlari e'tiborga molik hisoblangan bo'lsa, E.Sepir tadqiqotlarida til va madaniyat masalasi o'rganilganligi ahamiyatli. Shu o'rinda, Michael McCarthy, Felicity O'Dell qalamiga mansub, "English Vocabulary in Use: vocabulary reference and practice" nomli qo'llanmadan maqolada amaliy foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillaridagi turli mavzudagi iqtisodiy mavzudagi matnlarda uchraydigan stilistik vositalarni tahlil qilish ahamiyat kasb etadi. Iqtisodga doir matnlarda eng ko'p uchraydigan stilistik vositalardan biri bu metaforadir. Metafora obyektidagi bir xususiyatni ikkinchi bir o'xshashi bo'lmagan obyektga ko'chirish hisoblanadi. Bunda o'xshashligi bo'lmagan obyektlar o'rtasida xususiyatlar bevosita taqqoslanadi. Mefaralardan foydalanishdan asosiy maqsad yozma yoki og'zaki muloqotni jonli, mazmunli, ta'sirchanligini oshirishdan iborat.

Yana bir til o'xshatish vositalaridan biri "simile" bo'lib, metaforadan farqli yashirin yo'l bilan emas, ochiq o'xshatish usuli hisoblanadi. Bunda like yoki as – o'zbek tilida huddi, kabi, singari so'zlari bilan ishlatiladi.

Metafora bu insonlarning kundalik hayotida paydo bo'ladigan tilning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Masalan, Ingliz tilidagi War-torn economy (tarjimada esa, urush tufayli yirtilgan iqtisod) iborasi o'zbek tili frazeologiyasida o'z muqobilini yoki analogini topa olmaydi, chunki u milliy xususiyatga ega. Shu bois, uni bir tildan ikkinchi tilga o'girishda faqatgina leksik tarjimaga asoslanib, mazmunini tinglovchiga yetkazish mumkin. Shuning uchun ham mazkur

ibora o'zbek tilida urush tufayli zaiflashgan iqtisod frazasi bilan transformatsiya qilinadi. Ba'zi iqtisodga oid tushunchalarning semantikasi ikkala tilda ham bir biriga muvofiq keladi. Masalan, ingliz tilida devolution/revolution of the currency [1,96.] iborasi ma'lum bir pul birligi qiymatining masalan, so'mning boshqa pul birliklari qiymatiga nisbatan tushishi yoki ko'tarilishiga nisbatan ishlatiladi va bu frazaning o'zbek tilida analogi mavjud. Ya'ni, leksik tarjima qilinganda to'g'ridan to'g'ri muqobilini topa oladi.

Iqtisodiyoti zaif bo'lgan davlatlarga nisbatan iqtisodiyotini izohlashda ko'pincha ingliz tilida ailing economy [1,97.] qo'llaniladi. Bunda metafara usulida ma'no ko'chirilgan. o'zbek tili stilistik zahirasida bunday ma'no ko'chishni ifodalovchi ehtimolli muqobillari sifatida quyidagi terminlar faol ishlatiladi: nochor iqtisod [2], qoloq iqtisod [3], zaif iqtisod [4] va boshqalar.

O'zbek va ingliz tillarida iqtisodga oid yondosh so'zlar (collocations), frazali strukturalar (idiomatic structures) har doim ham o'girilganda o'z analogini topmasa ham leksik-semantik ma'nosiga asoslanishi lozim bo'ladi. Chunki, Yangi O'zbekistonda yuqori malakali iqtisodchilar tayyorlab chiqarish hamda respublikamizda xalqaro va xorijiy iqtisodiyot amaliyotini hisobga olgan holda milliy rivojlanishimiz uchun milliy terminologiyani ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish lozim bo'ladi. Shu asosda iqtisodiy o'quv terminologik lug'atlarni ishlab chiqish lozim. Bunday lug'atlarga iqtisodiyot sohasiga tegishli bo'lgan yondosh so'zlar, iboralar, evfemizmlar kiradi. Masalan, pulsiz qolish, ya'ni bir chaqasiz qolish ma'nosi ingliz tilida - I am broke yoki I am skint iborasi bilan qo'llaniladi. Bu iboralar norasmiy hisoblanib asosan og'zaki nutqda yoki ko'cha tilida foydalaniladi.

I was broke at the end of last month. - O'tgan oyda hech qanday pulsiz qoldim.

Bu iborani aksini ifodalashda I am rolling in it this month o'zbek tilida Bu oyda pulga ko'milib qoldim iborasiga to'g'ri keladi.

Yana ingliz tili nutqida faol ishlatiladigan idiomatik struktura to make ends meet - ehtiyojlarni qondirish o'zbek tilida ro'zg'or tebratish, qora qozon qaynatish kabi iboralarga anonim bo'la oladi.

Bugungi kunda fan va texnologiyaning ko'pgina sohalarida jadal rivojlanishi yangidan yangi individul terminlarning professionaldan kundalik foydalanishga bosqichma-bosqich o'tishi boshlanmoqda. Bunga misol qilib, electronic transfer iborasini keltirishimiz mumkin. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish masalasi 2020 yil 5 oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «Raqamli O'zbekiston - 2030» Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6079-sonli farmonida o'z aksini topganligini aytib o'tishimiz mumkin[5]. Electronic transfer iborasi o'zbek tiliga tarjima qilinganda elektron o'tkazmalarni yoki o'zaro elektron munosabatlarni ifodalaydi. Bugungi kunda Electronic transfer hayotimizning tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Bu o'rinda mamlakatimizda olib borilayotgan insonparvar siyosat asosida aholiga qulaylik yaratish maqsadida kartadan kartaga pul o'tkazish va hisobga pul o'tkazish kabi zamonaviy elektron xizmatlarni ishlayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu albatta tilshunoslarni oldiga muhim vazifalardan bo'lgan yangi kirib kelayotgan xalqaro va xorijiy termin va iboralarni o'zbek tilida aynan grammatik, stilistik va semantik jihatdan to'g'ri analogini topish vazifasini qo'yadi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy ingliz tilidagi iqtisodiyot sohasi nutq matnlarida asosiy va umumiste'molda keng tarqalgan tushunchalardan biri bu moliyaviy inqiroz - financial crisis termini hisoblanadi. O'zida bir qancha umumiy g'oyalarni mujassam etga ushbu, financial crisis, konseptual tushunchani o'rganish, ayniqsa, siyosiy va iqtisodiy voqeiklar

asosida tahlil etish dolzarb sanaladi. Siyosat va iqtisodiyotning jamiyat ijtimoiy hayotining boshqa sohalar bilan chambarchas bog'liqligi natijasida muayna bir kognitiv manzarasini shakllantiradi, bu o'z navbatida, inqiroz, boylik, hokimiyat, kapital va hokazolarning asosiy siyosiy-iqtisodiy tushunchalariga asoslanadi.

Moliyaviy inqiroz hodisasining mohiyatini tushinishda uning iqtisodiy oqibatlarini hisobga olish yotadi, jumladan, inflyatsiya, to'lovlarini to'lamaslik, valyuta kurslari va qimmatli qog'ozlar narxlarining o'zgaruvchanligi natijasida bo'lgan mamlakat moliya tizimining chuqur buzilishi. Zamonaviy ingliz tilidagi iqtisodiy lug'atlarda moliyaviy inqiroz tushunchasi ta'riflari mavjud bo'lishiga qaramay, ushbu iqtisodiy hodisaning metaforik aks ettirilishining ingliz tilidagi ananaviy biznes nashrlari matnlarida ko'plab taqdim qilinishi faktlarini qayd qilish kerak.

Zamonaviy ingliz tilidagi iqtisodiy diskursda ayrim so'zlar va iboralar salbiy ma'noga ega, aynan, salbiy ma'nodagi so'zlar moliyaviy inqiroz - financial crisis tushunchasi o'rinda nutq aktlarida faol qo'llaniladi. Bu shuni anglatadiki, bu moliyaviy inqiroz - financial crisis nutq aktlarida keng qo'llaniluvchi diskursiv metaforik hususiyatga ega konseptiv iqtisodiy termin. Masalan, mazkur terminni threat - tahdid; trouble - tashvish; danger - xavf-xatar; disaster - falokat; tragedy - fojia; stress - tushkunlik; nightmare - dahshatli tush; worst-case scenario - eng yomon ssenariy; catastrophe - falokat; calamity - musibat; collapse - qulash; chaos- betartiblik semantikasi bilan ishlatish tendensiyasi mavjud. Anglashiladiki, ushbu tushuncha orqali biznes doirasidagi adresat ongida moliyaviy inqiroz ko'plab muammolar mavjud bo'lgan juda qiyin va xavfli vaziyat sifatida qabul qilinadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda bugungi kunda rivojlanish tufayli jamg'arma pullari, rag'bat pullari va boshqa har xil to'lovlar ko'lami ham kengayib bormoqda va bunday so'zlar asosan xalqaro internatsional terminlarda ifodalanadi. Jumladan, generous benefits o'zbek tiliga mukofot yoki rag'batlantirish degan ma'no anglatadi. Lekin, ingliz tilida mukofot yoki rag'batlantirish nafaqat moddiy, balki ma'naviy rag'batlantirish, jumladan, sayohat, dam olish joylariga yo'llanma berishni ham nazarda tutadi.

Bundan tashqari, inglizcha biznes-publitsistik diskursda financial crisis - moliyaviy inqiroz tushunchasi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ko'pincha ushbu termin quyidagi konseptual metafora orqali taqdim etiladi, jumladan, "Financial crisis is a nature catastrophe" - "Moliyaviy inqiroz bu tabiiy ofat" ma'nosida. Mazkur ma'noda qo'llanishni bir qancha ingliz tili matnlarida uchratamiz.

Masalan:

1) The financial crisis of 2008 was a wave. The epicenter of the next great financial crisis will be in Europe and that will be another wave. There will be waves after that one that will be even worse. Yes, the waves are going to start coming more rapidly and will start becoming more intense. The country's economic problems have become the epicenter of Europe's debt crisis (www.businessweek.com);

O'zbek tiliga tarjimasi: 2008 yilgi moliyaviy inqiroz to'lgindek keldi. Keyingi ulkan moliyaviy inqiroz markazi Yevropada bo'ladi va bu boshqa ko'rinishdagi to'lqin bo'ladi. Undan keyin to'lqinlar bundan ham battarroq bo'ladi. Ha, to'lqinlar tezroq kela boshlaydi va yanada shiddatliroq bo'ladi. Mamlakatning iqtisodiy muammolari Yevropaning qarz inqirozining markaziga aylandi.

2) Asia is being hit by a financial tsunami - Osiyoga moliyaviy sunami yog'ilmoqda (www.businessweek.com).

Shuni ta'kidlash joizki, matn shakllanishda grammatik referensiya (reference)larning o'rni muhim hisoblanadi. Matn tarkibida iqtisod sohasiga doir The financial

(crisis) terminining qayta-qayta qo'llanilishi anafora referentsiya deb ataladi (1-misol). Anafora (qadimgi yunoncha ἀναφορά "anafora", ma'nosi "ko'tarilish") - til elementlarining takrorlanishidan iborat uslubiy figuradir; tovushlar, har bir parallel qator boshida takrorlanuvchi so'zlar yoki so'zlar birikmalari hisoblanadi. Nutqning mustaqil qismlari (she'rlar, misralar, iboralar yoki jumlar) bo'yicha ikki yoki undan ortiq qismning takrorlanuvchi boshlang'ich qismlari. Diskursda mazkur referentsiyani "voqelik bo'lagining lisonda turlicha ifodalanishidan iborat bo'lgan koreferentlik anafora yoki anafolik ishora vositasida namoyon bo'ladi. Anafora nutqiy tuzilma bo'laklarining mazmunan boglanishini ta'minlaydi, u koreferentlik haqida ma'lumot beruvchi lisoniy hodisadir" deya ta'kidlanadi. Anaforaning aksi epifora referentsiyasidir, ushbu jarayonda takrorlanuvchi leksik birlik gaplar oxirida qo'llaniladi (2-misol).

3) George Osborne on Thursday night ... batted down the hatches (idiom - batten down the hatches - to prepare yourself for a period of difficulty or trouble) for a worsening "Eurozone debt storm". The government — with the help of the Bank of England - will not stand on the sidelines and do nothing as the storm gathers but these countries are well prepared to weather the storm (www.businessweek.com)

O'zbek tiliga tarjimai: Payshanba kuni kechqurun Jorj Obsorn... "yevrozona qarz bo'roni" ning yomonlashuvini oldini olish uchun tayyorgarligini ko'rdi. Hukumat - Angliya Bankining yordami bilan - bo'ron to'planib qolganda, chetda qarab turmaydi va hech narsa qilmaydi, ammo bu mamlakatlar bo'ronni yengishga qarshi yaxshi tayyor.

Xulosa va takliflar. Jamiyatdagi axborot oqimining jadallashuvi hamda texnologiyaning takomillashuvi termin va notermin so'zlar o'rtasidagi chegaraning bir-biriga yaqinlashuviga sabab bo'ladi. Fan va texnika yutuqlarining ommaviylashuvi esa neologizmlarni terminlarga yoki muntazam shaklda ishlatiladigan so'zlarga aylantiradi. Xususan, iqtisod sohasiga doir terminlarni o'rganish, bir tomondan, tilning leksik qatlamini o'rganishdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, tilning leksik qatlamida mavjud tor doiradagi neologizmlarni ilmiy-nazariy o'rganish ham hisoblanadi. Terminlarni ommabopligi ijtimoiy ongda o'zlashgan so'zlarni keng qo'llanilishi bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa o'z-o'zidan qiyoslanayotgan tillarning o'zaro tadqiqini zaruriyatga aylantiradi. Adabiy tilda qanchalik qardosh bo'lmagan tillardagi so'zlarning kirib kelishi bilan pragmatik imkoniyatlarning boyib borishini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Michael McCarthy, Felicity O'Dell. English Vocabulary in Use: vocabulary reference and practice. Third edition. Cambridge university press, 2017. -300 P.
2. Karimov I.A. Sobiq tuzum davrida O'zbekiston yarim mustamlaka respublika edi//<https://kun.uz/news/2016/06/30/islom-karimov-sobik-tuzum-davrida-uzbekiston-arim-mustamlaka-respublika-edi>
3. Shamsieva F.M. Rivojlanishni innovatsion yo'lga o'tish – iqtisodiy havfsizlik strategiyasining asosidir// Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari: Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. –Toshkent, TDIU, 2019. https://tsue.scienceweb.uz/index.php/iqtisodiy_xavfsizlik/article/view/42
4. Bahriev K. Raqamli iqtisodiyot: Kuchli birni yengadi, aqlli mingni... //https://human.uz/12/53/1197
5. <https://lex.uz/uz/docs/5030957?ONDATE2=14.07.2021&action=compare>